



TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

# TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL  
ISSN 2992-9016

№1/2026

**Muassis:**  
TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi**  
**Ilmiy-uslubiy jurnal**

**Bosh muharrir:**

Sattarov Abdusamat  
Umurqulovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

**Mas'ul kotib:**

Turayev Baxtiyor Ergashevich

**Dizayner:**

Meyliqulov Shahboz  
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba**  
**nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

31.03. 2026.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnituruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

**Tahririyat manzili:**

Termiz sh., "Yulduz" MFY,  
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)  
L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)  
Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.  
Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD). dots.  
Toshqulov A.H. – i.f.d, prof.  
Absamatov A.E. – i.f.d., dots.  
Ruzmetov B. – i.f.d. prof.  
Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.  
Ro'ziyev O.A. – i.f.n., dots.  
Otamurodov Sh.N. – i.f.d., dots.  
Shodiyev A.A. – i.f.d., dots.  
Bakirov P.U. – f.f.d., prof.  
Qodirov U.D. – p.f.d., prof.  
Turopova S.K. – f.f.d., dots.  
Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.  
Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots  
Yarmatov Sh.CH. – i.f.f.d (PhD).  
Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).  
Absamatov As.E. – i.f.f.d (PhD)  
Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).  
Xoliyorov E.Ch. – f-m.f.n., dots.  
Esanov A.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.  
Xudoyberdiyev U.T. – t.f.f.d. (PhD)  
Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD), dots v.b.  
Xayrullayev I.N. – f-m.f.n., dots.  
Bozorov S.B. – f.f.f.d. (PhD)  
Sattarova Y.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.  
Eshkurbanov S.B. – t.f.f.d. (PhD), dots.  
Saloxitdinova N.M. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Madiyeva M.Y. – f.f.f.d. (PhD), dots.  
Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD), dots.  
Yormatov F. J. – t.f.n., dots.  
Xoshimxo'jayeva M. –f.f.f.d. (PhD), dots.  
Ismoilov B.T. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Salomov G'. Y. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Uralova O. P. – f.f.d (DSc), dots.  
Xolov O.Ch. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Usmonov M. Q. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Abdusamatov A.S. - p.f.f.d. (PhD). dots.  
Norkulova Sh. T. – f.f.f.d. (PhD)  
Shoturayev J. – p.f.f.d. (PhD).  
Abduraxmanov A.Y. – t.f.f.d. (PhD).

# MUNDARIJA

## **N.A. ABDURAIMOVA, M.N. KARIMOVA**

Tadbirkorlik subyektlarida moliyalashtirishni takomillashtirish asosida aholi bandligini ta'minlashning iqtisodiy tahlili.....5

## **N.A. ABDURAIMOVA, M.T. RO'ZIYEVA**

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....10

## **G.A. AXMETOVA**

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash omillari.....16

## **S.R. BOYPO'LATOV**

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda innovatsion va raqamli texnologiyalarning roli.....21

## **M.SH. CHORIYEVA**

Eksport salohiyatidan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish omillari.....26

## **N.X. DO'SMUXAMEDOVA**

Nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini samarali yuritish omillari.....32

## **B.A. ERDANAYEV**

Hududiy rivojlanishda drayver tarmoqlarning o'рни va ularni shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari .....37

## **N.N. ESHQULOVA, SH.B. ABDUNABIYEV**

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi va xizmatlar eksporti dinamikasi tahlili.....42

## **M.X. KURBOSHEVA**

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning nazariy-metodologik asoslari.....47

## **O.J. MURODOV, H.I. G'ULOMOV**

Paxta tozalash korxonalarida moliyalashtirish-innovatsiya uzilishi: O'zbekiston agroklastarlari misolida empirik tahlil.....52

## **SH.S. MUZRAPOVA, N.S. MUZRAPOVA**

Ekonometrika ta'limida interaktiv va amaliy matematika asosidagi yondashuvlarning samaradorligini baholash.....59

## **Z.M. NORALIYEVA**

Qishloq joylarni rivojlantirish va aholi turmush sifatini yaxshilashda kichik biznes samaradorligini oshirish yo'llari.....66

## **A.P. PARDAYEV**

O'zbekiston bank tizimini strategik transformatsiya jarayonining tahlili.....74

## **J.R. SAYFIYEV**

Agile transformatsiya jarayonidagi kutilayotgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari.....77

## **A.A. SHODIYEV, B.A. SHODIYEV**

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari.....82

## **B.E. TURAYEV**

Iqtisodiy o'sish omillarini kobb-duglas modeli asosida ekonometrik baholash.....89

## **Z.I. XAKIMOV**

Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni moliyalash yo'nalishlari.....93

## **N.A. XAKIMOVA**

Fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab - quvvatlashda subsidiya amaliyotini takomillashtirish.....98

## **SH.D. XAYDAROVA**

Maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari.....103

## **L.L. XAYRULLAYEVA**

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashil iqtisodiyot yondashuvi va an'anaviy iqtisodiy model.....107

## **Y.Z. XUDAYAROVA**

Asalarichilik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni lasso regression modeli asosida tahlil qilish.....112

## **R.A. XURRAMOV**

Hududlar kesimida eksport mahsulotlarining daromadlilik darajasini prody indeksi asosida statistik tahlil qilish.....116

## **G.A. YUSUPOV**

Uzoq muddatli aktivlarda adaptiv amortizatsiya usuli.....122

# MUNDARIJA

## **SH.E.BOBOMURATOVA**

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....126

## **D.MUQUMOVA**

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....134

## **D.B.IBODULLAYEVA**

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....137

## **Z.M.AMIRKULOVA**

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqe'lik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....140

## **M.A.MEYLIQULOVA**

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....144

## **SH.A.DONAYEVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....147

## **G.E.TURAYEVA**

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish .....150

## **M.X.XAYDAROVA**

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....153

## **F.A.XAYITOVA**

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....157

## **D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV**

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....160

## **F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA**

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'rni.....164

## **U.A.TASHBAYEVA**

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....169

## **SH.T.TOSHOVA**

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....173

## **R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....176

## **G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA**

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....180

## **D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....187

## **M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....190

## **M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA**

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....194

## **G'A.MAMARAJABOV**

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....198

## **T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV**

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....202

## **SH.T.YAKUBOVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....205

## **N.B.RAUPOVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari namunalari misolida).....208

## **M.SH.BURIYEVA**

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....213

## **Z.M.ALLAYEV**

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....218

## **Z.F.ERGASHEVA, G'Y.SALOMOV**

Ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....221

## **L.A.RAIMOV**

A comparative analysis of ai and human translation in advertising texts.....225

## **A.A.QARAQULOV**

Mengziyo Safarov qissalarida ona-tabiatning poetik manzarasi.....229

## **N.A.UMAROVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish nazariyasi va metodikasi.....234

## **M.T.MENGNAROVA**

Ingliz va O'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda madaniy birliklarning ahamiyati.....238

## **I.B.JURAEV**

The effect of authentic materials on vocabulary acquisition in english classes.....242

## **D.A.BADALOV**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, klaster metodida yondashish.....248

## **F.J. YARMATOV, T.J. YARMATOV**

Dostonchilik an'analari shakllanishining tarixiy asoslari.....252

## **M.O.BEGALIYEVA**

Pattakesar.....257

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası o'qituvchisi  
**Pardayev Anvarjon Yusupovich**  
E-mail: anvarjon\_pardayev@tues.uz

## **O'ZBEKISTON BANK TIZIMINI STRATEGIK TRANSFORMATSIYA JARAYONINING TAHLILI**

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada O'zbekiston bank tizimining 2020–2025-yillarda amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlari institutsional, texnologik va inson omillari kesimida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda bank sektorida davlat ulushining qisqarishi, xususiy sektor faolligining oshishi, raqamli ekotizimlarning shakllanishi hamda inson kapitalining bank samaradorligiga ta'siri empirik va nazariy jihatdan o'rganilgan. Olingan natijalar bank tizimi transformatsiyasi ko'p qatlamli jarayon ekanligini va uning muvaffaqiyati faqat moliyaviy ko'rsatkichlarga emas, balki boshqaruv sifati va institutsional muhitga bog'liqligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** bank tizimi, transformatsiya, raqamli banking, inson kapitali, ESG, moliyaviy barqarorlik, Open Banking

## **АНАЛИЗ ПРОЦЕССА СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье проводится комплексный анализ процессов трансформации банковской системы Узбекистана в 2020–2025 годах в разрезе институциональных, технологических и человеческих факторов. В исследовании эмпирически и теоретически рассмотрены сокращение доли государства в банковском секторе, рост активности частного сектора, формирование цифровых экосистем, а также влияние человеческого капитала на эффективность банковской деятельности. Полученные результаты свидетельствуют о том, что трансформация банковской системы является многослойным процессом, и её успешность определяется не только финансовыми показателями, но и качеством управления и институциональной среды.

**Ключевые слова:** банковская система, трансформация, цифровой банкинг, человеческий капитал, ESG, финансовая устойчивость, открытый банкинг (Open Banking).

## **ANALYSIS OF THE STRATEGIC TRANSFORMATION PROCESS OF THE BANKING SYSTEM OF UZBEKISTAN**

### **ABSTRACT**

This article provides a comprehensive analysis of the transformation processes of the banking system of Uzbekistan during 2020–2025, considering institutional, technological, and human factors. The study examines, both empirically and theoretically, the reduction of state ownership in the banking sector, the increasing role of the private sector, the development of digital ecosystems, and the impact of human capital on banking efficiency. The findings indicate that the transformation of the banking system is a multi-layered process, and its success depends not only on financial indicators but also on the quality of governance and the institutional environment.

**Keywords:** banking system, transformation, digital banking, human capital, ESG, financial stability, Open Banking

### **KIRISH**

O'zbekiston bank tizimi milliy iqtisodiyotning asosiy tayanch institutlaridan biri sifatida so'nggi yillarda chuqur transformatsiya bosqichiga kirib bordi. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan bank tizimini isloh qilish strategiyasi ushbu sohada tub burilish yasadi. Ushbu strategiya doirasida asosiy e'tibor bank

sektorida davlat ulushini qisqartirish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va moliyaviy xizmatlar sifatini oshirishga qaratildi.

Biroq, amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, transformatsiya jarayoni chiziqli emas. Bir tomondan, bank aktivlari va kreditlash hajmi o'smoqda, boshqa tomondan esa tizim ichida strukturaviy nomutanosibliklar saqlanib

qolmoqda. Ayniqsa, davlat banklarining ustunligi, kredit resurslarining yo'naltirilganligi va bozor signallarining to'liq shakllanmaganligi tizim samaradorligiga ta'sir qilmoqda.

Shu sababli, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi bank tizimi transformatsiyasini faqat statistik ko'rsatkichlar orqali emas, balki chuqur institutsional va insoniy omillar asosida baholashdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bank tizimi transformatsiyasi masalasi xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Tahlil natijasida uch asosiy yondashuv aniqlanadi.

Birinchi yondashuv - institutsional yondashuv bo'lib, unda bank tizimi samaradorligi mulkchilik shakli va boshqaruv sifati bilan izohlanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, davlat ulushining yuqoriligi kredit resurslarining noto'g'ri taqsimlanishiga olib keladi.

Ikkinchi yondashuv - texnologik yondashuv bo'lib, unda raqamli transformatsiya bank sektorining asosiy drayveri sifatida qaraladi. Bu yondashuvda fintech, sun'iy intellekt va ochiq banking muhim o'rin tutadi.

Uchinchi yondashuv - kompleks yondashuv bo'lib, unda bank tizimi institutsional, texnologik va insoniy omillar birligida ko'rib chiqiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, mavjud tadqiqotlarning aksariyatida inson omili yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. O'zbekistondagi 36 ta tijorat bankining (9 ta davlat va 27 ta xususiy) so'ngi yillardagi moliyaviy va operatsion ko'rsatkichlari (ROA, ROE, NPL) qiyoslandi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Statistik tahlil: Markaziy bank va xalqaro moliya institutlarining (Jahon banki, XVJ) hisobotlari asosida maqsadli ko'rsatkichlarga erishish darajasi o'rganildi.

Matritsali modellashtirish: Ochiq banking (Open Banking) va API texnologiyalarining milliy fintech bozoriga ta'sirini baholash uchun maxsus model qo'llanildi.

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

- statistik tahlil (2020–2024-yillar ma'lumotlari),
- qiyosiy tahlil (davlat va xususiy banklar),
- empirik kuzatuv,
- analitik umumlashtirish.

**Tahlil va natijalar.** Strategiyaning amalga oshirilishi natijasida bank aktivlarida xususiy sektor ulushi ortmoqda. Eng muhim yutuqlardan biri - "Ipoteka-bank"ning 75% aksiyalarining Vengriyaning OTP bankiga sotilishi bo'ldi. Shuningdek, "O'zsanoatqurilishbank" (SQB)

va "Asaka bank"da transformatsiya jarayonlari yakuniy bosqichga yetgan.

1-jadval

**Bank tizimini isloh qilishning asosiy indikatori**

Ko'rsatkichlar nomi	2020-y (Boshlang'ich)	2025-y (Maqsad)	2024-y (Amaldagi holat)
Xususiy banklar aktivlarining ulushi	15%	60%	33%
Banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlari	28%	70%	32.67%
Depozitlarning banklar majburiyatlariga nisbati	41%	50-60%	45.57%
Bank aktivlarining YAIMga nisbati	53%	>55%	54-56%
Xorijiy strategik investorlar jalb qilingan banklar	0	3	1 (Ipoteka-bank)

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xususiy banklarning samaradorlik ko'rsatkichlari davlat banklariga nisbatan sezilarli darajada yuqori. Xususiy banklar ko'proq foizsiz daromadlar (komissiyalar, raqamli xizmatlar) hisobiga foyda ko'rmoqda.

Xususiy kapital rentabelligi (ROE): Xususiy banklarda 16.79%, davlat banklarida esa atigi 7.36% ni tashkil etadi.

Muammoli kreditlar (NPL): Davlat banklarida NPL ulushi 67.81% ni tashkil qiladi, bunga asosiy sabab ularning zimmasiga yuklangan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlardir.

2-jadval

**Yetakchi fintex platformalarining moliyaviy natijalari**

Platforma	Sof foyda (mlrd so'm)	Tushum (mlrd so'm)	Foydalanuvchilar soni
Paynet	~ 330.5	~ 1200	15 mln+
Payme	~ 287.3	~ 534.2	10 mln+
Click	~ 235.7	~ 549.1	20 mln+
Uzum Bank	~ 238.1	-	5 mln+

O'zbekiston moliya bozorida an'anaviy banklar va fintex kompaniyalarining birlashishi natijasida kuchli raqamli ekotizimlar shakllandi. Uzum ekotizimi 1.1 milliard dollarlik baho bilan mamlakatning birinchi "unicorn"iga aylandi.

3-jadval

**Bank tizimi asosiy ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkich	2020	2022	2024
Aktivlar (YAIMga nisbatan)	53%	55%	56%
Davlat ulushi	85%	70%	65%
Depozitlar ulushi	41%	44%	45.5%

Tahlil shuni ko'rsatadiki, davlat ulushi kamayotgan bo'lsa-da, u hali ham yuqori darajada. Bu esa bozor mexanizmlarining to'liq shakllanishiga to'siqlik qiladi.

4-jadval

**Samaradorlik tahlili**

Ko'rsatkichlar	Davlat banklari	Xususiy banklar
ROE	7.5%	16.7%
NPL	8.5%	4.2%

Natijalar xususiy banklar ustunligini ko'rsatadi, biroq bu farq faqat boshqaruv bilan emas, balki funksional yuklama bilan ham izohlanadi.

Raqamli ekotizimlar banklarning biznes modelini tubdan o'zgartirmoqda. Banklar endi platforma modeliga o'tmoqda.

Transformatsiya jarayonida quyidagi muammolar aniqlanadi:

1. institutsional moslashuvning sustligi,
  2. kichik banklarning raqobatbardoshligi pastligi,
  3. texnologik va boshqaruv tafovuti.
- Shu bilan birga, ochiq banking va sun'iy intellekt yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Tadqiqotning eng muhim natijalaridan biri — inson omilining hal qiluvchi roli.

5-jadval

**Inson omilining o'rni**

Omil	Ta'siri
Boshqaruv sifati	juda yuqori
Kadrlar malakasi	yuqori
Motivatsiya	o'rta

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, texnologiyalar samaradorligi ularni boshqarayotgan insonlarga bog'liq.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatadi:

1. Bank tizimi transformatsiyasi murakkab va ko'p bosqichli jarayon.
2. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi tafovut saqlanib qolmoqda.
3. Raqamli transformatsiya muhim, lekin yetarli emas.
4. Inson omili asosiy determinant hisoblanadi.

**Xulosa.** O'zbekiston bank tizimi transformatsiyasi faqatgina mulkchilik shaklini o'zgartirish emas, balki butun biznes modelini raqamlashtirish va "ko'kalamzorlashtirish" jarayonidir. Mazkur strategiya banklarni yanada

moslashuvchan, mijozga yo'naltirilgan va xalqaro bozorlarga integratsiyalashgan muassasalarga aylantirish imkonini beradi.

Xususiylashtirishni jadallashtirish: Yirik davlat banklarida strategik investorlar ulushini oshirish orqali korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga keltirish lozim. AI industrializatsiyasi esa Banklar sun'iy intellektni faqat pilot loyihalarda emas, balki risk-menejment va shaxsiylashtirilgan xizmatlarda keng qo'llashi zarur. ESG integratsiyasi: Iqlim risklarini baholash banklarning kredit siyosatining ajralmas qismiga aylanishi kerak. Ochiq banking infratuzilmasi: API texnologiyalarini rivojlantirish orqali moliya bozorida teng raqobat muhitini yaratish lozim. Eng muhim xulosa shuki: bank tizimini modernizatsiya qilish texnologiyalar bilan emas, balki inson kapitali va institutsional sifat bilan belgilanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida (PF-5992-son Farmon). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy nashri. 2020
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot 2023. Toshkent: Markaziy bank. 2023
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot 2024. Toshkent: Markaziy bank. 2024.
4. World Bank. Uzbekistan financial sector review. Washington, DC: World Bank. 2023
5. International Monetary Fund (IMF). Republic of Uzbekistan: Financial system stability assessment. Washington, DC: IMF. 2024
6. Deloitte. 2025 banking and capital markets outlook. London: Deloitte Insights. 2025.
7. McKinsey & Company. Global banking annual review: The state of banking. New York: McKinsey Global Institute. 2024
8. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Financial markets and banking sector development. Paris: OECD Publishing. 2023.
9. Global Green Growth Institute (GGGI). Advancing green finance in Uzbekistan. Seoul: GGGI. 2026
10. Sindarov F. O'zbekiston bank sektoridagi muammolar va rivojlanish istiqbollari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. 2024
11. Okiljonova M. The rise of digital finance in Uzbekistan: A comparative analysis. Journal of Emerging Financial Markets, 12(2), 2025, 45–62.
12. Kuvatova O.. Open banking and fintech evolution in Uzbekistan. International Journal of Financial Innovation, 8(1), 2026, 77–95.